O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI

TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"

Prorektor ________ B. Normamatov

2023-yil "28"-avgust

# "TARBIYA" FANINI O'QITISH METODIKASI
fanining
# ISHCHI O'QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| | 100 000 – Gumanitar soha |
| Bilimsohasi: | 110 000 – Pedagogika |
| Ta'limsohasi: | 5111200 – O'zbek tili va adabiyoti (kechki ta'lim shakli) |
| Ta'lim yo'nalishi: | |

Toshkent-2023

| Fan/modulkodi | Fan/modulturi | | | Ta'limtili | | | | Ishlabchiqilganoʻquvyili | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | majburiy | | | oʻzbek | | | | 2023/2024 | | |
| Semestr | Har bir semestrdagi fan/modulning nomi | ECTS - Kreditlar | Haftalikdarssoatlari | Oʻquvmashgʻulotlari (soat) | | | | | Mustaqilta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | | | | Jami: | ma'ruza | seminar | amaliy | laboratoriya | | |
| 7 | "Tarbiya"fanini oʻqitish metodikasi | 5 | 4 | 60 | 10 | 0 | 50 | 0 | 90 | 150 |
| | Jami: | 5 | 4 | 60 | 10 | 0 | 50 | 0 | 90 | 150 |

## 1. FANNING MAZMUNI

"Tarbiya fanini oʻqitish metodikasi" talaba-yoshlarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma'naviyatni yanada chuqur singdirish, ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish vazifalarini bajaradi.

Fan ni oʻqitishdan **maqsad** — talaba-yoshlarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlashda mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, sogʻlom e'tiqodlilik, ma'rifatlilik, diniy va milliy bagʻrikenglik, ma' naviy, fuqaroviy, madaniyatlararo, ijtimoiy kabi fazilatlarni shakllantirish, shuningdek, talaba-yoshlar tarbiyasida dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarga toʻgʻri baho bera olish, ijtimoiy muammolarni hal etishda toʻgʻri qaror qabul qilish, hayotda oʻz oʻrnini topish bilan bogʻliq boʻlgan aniq maqsadlarni shakllantira olishga oʻrgatish, oila-jamiyat oʻrtasidagi munosabatlarning uzilib qolishining oldini olish, loqaydlik, huquqbuzarli koʻrkoʻronaviy madaniyatning turli koʻrinishlaridan saqlashdan iborat.

maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimi, amaliy koʻnikmalari, jamiyatning turli sohalaridagi jarayonlariga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Tarbiya fanining maqsad va vazifalari, Tarbiya jarayonida tizimlilik, uzluksizlik, uzviylik tamoyillari, tarbiya fanining ilmiy-tadqiqot metodlari haqida tasavvurga ega boʻlishi;

Har bir bosqichda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish koʻnikmalariga ega boʻlishi;

Talaba-yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, ularning har tomonlama ijtimoiylashuviga koʻmaklashish, samarali hamkorlik qilish, vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy, ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish,



oʻzlarining intellektual va ijodiy salohiyatini roʻyobga chiqarish yuzasidan amaliy bilim va koʻnikmalarga ega boʻlishi;

-mustaqil va erkin fikrlashni hamda ,ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

Muayyan nazariy masalalarga oid fikrlarni bayon etishi, ularga nisbatan tanqidiy munosabatni shakllantirish koʻnikmalariga ega boʻlishi kerak.

"Tarbiya" fani barcha fanlar bilan bogʻliq holda ish koʻrganligi bois qator fanlar uchun asos vazifasini oʻtaydi.

## 2. FANNI OʻQITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR

Tarbiya dunyoqarash bilan bogʻliq madaniy bilimlarga ega boʻlish, mustaqil tahlil qila olish, kasbiy faoliyatida ularni hisobga olish; komil inson obrazini shakllantirishda milliy oʻzlik va milliylikni rolini bilish.

hozirgi tarbiya fani yoshlarni shakllantirish, oʻzbek madaniyati va ommaviy madaniyatning xususiyatlari haqida ***tasavvurga ega boʻlishi;***

– Tarbiyaning hozirgi vaqtdagi xususiyatlarini, bu sohadagi dolzarb muammolarni bilish va ularni tahlili qila olish ***malakasini egallashi;***

– Tarbiya fanini tarixi, rivojlanishi, diniy va dunyoviy xususiyatlarini tahlil qila olish, ularining ta'lim bosqichlari darsliklarida qamrab olinishi darajasiga baho bera olish kabi ***koʻnikmalariga ega boʻlishi kerak.***

## 3.OʻQUV FANI OʻQITILISHI BOʻYICHA USLUBIY KOʻRSATMALAR

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni tayyorlash;
- individual loyihalar;
- jamoa boʻlib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar

## 4. TALABALAR KREDITLARNI OLISH TARTIBI

Talabalarning bilimini baholash va kreditlarni toʻplash jarayoni Oʻzbekiton Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil9-avgustdagi 19-2018-son buyrugʻi bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi toʻgʻrisida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

**I. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.**

**Oraliq nazorat:** oʻtilgan mavzular asosida ***test*** shaklda oʻtkaziladi.

**Yakuniy nazorat:** semestr davomida oʻtilgan mavzular boʻyicha ***yozma*** shaklida oʻtkaziladi.

*Izoh: Oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 martagacha o'tkazilishi mumkin.*

*Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.*

*Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muyyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.*

**2. Talabalarning bilimi baholash mezonlari:**

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda –**5 (a'lo) baho**;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda –**4 (yaxshi) baho**;

talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda –**3 (qoniqarli) baho;**

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda –2 **(qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

**5. O'QUV MASHG'ULOTLARI VA MUSTAQIL TA'LIM QISMI**

**7-SEMESTR**

**1. Ma'ruza mashg'ulotlari**

"Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)" o'quv fanining mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi, har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va qisqa ifodalar orqali ta'lim oluvchilarga davlat ta'lim standarti va malaka talablari asosida yetkazilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar qamrab olingan holda ifodalab beriladi. Asosiynazariyqismmodullarshaklidaberilishimumkin;

| № | Ma'ruza mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|
| 1 | Tarbiya fanini o'qitish metodikasi fanining asosiy maqsad va vazifalari. Tarbiya fanini o'qitish metodikasining xususiyatlari va boshqa fanlar bilan bog'liqligi. | Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi. O'quvchi kattalarning tajribalarini sust holda emas, balki faol ravishda o'zlashtiradi, bu o'zlashtirishda uning ongli harakati, tirishqoqligi katta ahamiyatga ega bo'ladi. | 2 |
| 2 | Tarbiya jarayonida tizimlilik, uzluksizlik, uzviylik tamoyilining ustuvor jihatlari. Tarbiya fanining ilmiy tadqiqot metodlari | Tarbiya metodlari – pedagog-o'qituvchilarning o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish usullari, vositalari, tarbiyalanuvchilarga barkamol shaxs xislatlarini singdirish maqsadida tarbiya jarayonini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tashkil etish yo'llaridir. | 2 |
| 3 | Tarbiya konsepsiyalarining tarbiyaviy jarayondagi ahamiyati. Jahon tarbiyaviy konsepsiyalari | Tarbiya konsepsiyalari, qiyosiy tahlil, milliy tarbiya, milliy xususiyatlar, tarbiyasi nazariyasi, tarbiyaning izchilligi, pedagogik tajriba, mahorat. | 2 |
| 4 | Tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishda ilg'or xorijiy tajribalar. Tarbiya texnologiyalarining yosh doirasida hamda ta'limning turli bosqichlarida qo'llanishi (maktabga tayyorlov bosqichi, 1-4 sinflar) | Ta'lim- tarbiya samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvning zaruriyati. O'qitish jarayonida innovatsion uslublarni ishlab chiqish va joriy etishning tashkiliy jihatlari. Innovatsion yondashuv asosida ta'lim-tarbiya jarayonida samaradorlikka erishish aspektlari. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta'lim-tarbiya. Ilg'or xorijiy ta'lim tizimlari | 2 |
| 5 | O'quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishda ta'lim metodlaridan foydalanish. Tarbiya texnologiyalarining yosh doirasida hamda ta'limning turli bosqichlarida qo'llanishi (5-11 sinflar hamda professional va oliy ta'lim) | O'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish uchun ta'lim texnologiyalarini tanlashda o'quv fani o'qituvchisi taqvim mavzu rejada mazkur sinf uchun belgilangan tayanch kompetensiyalarni belgilab oladi. Shundan so'ng, o'rganilishi zarur bo'lgan mavzu va shakllantiriladigan kompetensiyalarni hisobga olgan holda darsni o'tish metodi, usuli tanlanadi. | 2 |
| | | **Jami:** | **10 s.** |



**2. Amaliy mashg'ulotlar**

"Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar" o'quv fanining mohiyati va nazariy mavzulariga mos ravishda amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlarining mavzulari, ushbu mashg'ulotlarni o'tkazish shakllari, unda qo'llanishi tavsiya etiladigan texnologiyalar, usullar, vositalar zarur hollarda muhokama etiladigan mavzular, masalalar, laboratoriya ishlarining mazmuni, maqsadi hamda fan mohiyatidan kelib chiqadigan boshqa ma'lumotlar yoritiladi. Shuningdek, kurs loyihasi va kurs ishlari, ijodiy ishlar mohiyati, mazmuni, maqsadi,

mavzulari ularni bajarish shakllari hamda fan mohiyatidan kelib chiqadigan boshqa ma'lumotlar yoritiladi. Shu bilan birga ushbu qismda o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlarining maqsadi, vazifasi, shakli, mazmuni, amaliyot jarayonida ta'lim oluvchilar tomonidan tayyorlanishi zarur bo'lgan yakuniy ishlar shakli yuzasidan qisqa uslubiy ko'rsatmalar beriladi;

| № | Amaliy mashg'ulot mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|
| 1. | Tarbiya konsepsiyalarining tarbiyaviy jarayondagi ahamiyati. | Tarbiya nazariyasining mohiyati. Tarbiyaning paydo bo'lishi va tadrijiy rivojlanishi. Tarbiya turlari va ularning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati. Tarbiya va uning bugungi yoshlar tarbiyasidagi roli. | 2 |
| 2. | Konsepsiya tushunchasining mazmuni. | Tarbiyaviy konsepsiya tushunchasining mazmuni. Jahon tarbiyaviy konsepsiyalari. Tarbiyaviy ishlar tizimi. Tarbiya konsepsiyalari, qiyosiy tahlil, milliy tarbiya, milliy xususiyatlar, tarbiyasi nazariyasi, tarbiyaning izchilligi, pedagogik tajriba, mahorat. | 2 |
| 3. | Jahon tarbiyaviy konsepsiyalari | Jahon tarbiyaviy kontsepsiyalari namunalarining qiyosiy-pedagogik tahlili. O'zbekiston Respublikasida tarbiya jarayonining hozirgi bosqich muammolari. | 2 |
| 4. | Tarbiya jarayonida tizimlilik, uzluksizlik, uzviylik tamoyilining ustuvor jihatlari. | Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish; Maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni takomillashtirish, pedagog va | 2 |



| | | | |
|---|---|---|---|
| | | mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish; | |
| 5. | Tarbiya jarayonini samaradorligini oshirishda ilg'or xorijiy tajribalar | Ta'lim- tarbiya samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvning zaruriyati. O'qitish jarayonida innovatsion uslublarni ishlab chiqish va joriy etishning tashkiliy jihatlari. Innovatsion yondashuv asosida ta'lim-tarbiya jarayonida samaradorlikka erishish aspektlari. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta'lim-tarbiya. Ilg'or xorijiy ta'lim tizimlari | 2 |
| 6. | Boshlang'ich sinf o'quvchilarida muvaffaqiyatga erishishga intilish motivini shakllantirish shaxsning ustuvor xususiyati sifatida | O'quvchi faoliyatida motivlar ahamiyati. Turli aqliy harakatlarni talab etuvchi topshiriqlar. O'quvchilar bilimlarini rivojlantirish. O'quvchi murakkab topshiriqni o'zi mustaqil rejalashtirib bajarishi yoki pedagogning ko'rsatmasiga ko'ra bajarishi. | 2 |
| 7. | O'quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishda ta'lim metodlaridan foydalanish. | O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish uchun ta'lim texnologiyalarini tanlashda o'quv fani o'qituvchisi taqvim mavzu rejada mazkur sinf uchun belgilangan tayanch kompetensiyalarni belgilab oladi. Shundan so'ng, o'rganilishi zarur bo'lgan mavzu va shakllantiriladigan kompetensiyalarni hisobga olgan holda darsni o'tish metodi, usuli | 2 |
| 8. | O'quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishda ta'lim shakllaridan foydalanish. | O'qitishni tashkil etish shakllari haqida tushuncha. Ta'lim rivojlanishining dastlabki paytlaridagi roli. Maktabning tarixan taraqqiy etish davrida ta'limni tashkil qilish shakllari. | 2 |
| 9. | YUNISEF xalqaro tashkiloti faoliyatida yoshlarni xuquqiy himoya qilish masalalari. | BMTning Bolalar fondi (YUNISEF). Unicef xalqaro tashkiloti faoliyatida yoshlarni | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | huquqiy himoya qilish masalalari. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya (1989 y); YUNISEFning dasturiy bayonoti (1996); BMT Bosh Assambleyasining Mingyillik maqsadlari deklaratsiyasi (2000); "Bolalar uchun maqbul dunyo" deklaratsiyasi va Harakat reejasi (2002yildagi BMT Bosh Assambleyasining bolalar holati bo'yicha maxsus sessiyasi). | |
| 10. | O'zbekiston Respublikasida tarbiya jarayoning xozirgi bosqich muammolari. | Tarbiyaviy konsepsiya tushunchasining mazmuni. Jahon tarbiyaviy konsepsiyalari. Tarbiyaviy ishlar tizimi. | 2 |
| 11. | Jahon tarbiyaviy konsepsiyalari namunalarining qiyosiy-pedagogik tahlili. | Tarbiya konsepsiyalari, qiyosiy tahlil, milliy tarbiya, milliy xususiyatlar, tarbiyasi nazariyasi, tarbiyaning izchilligi, pedagogik tajriba, mahorat. Pedagogika nazariyasida qiyosiy yo'nalishni kuchaytirishni, turli zamon va makonlarda yaratilgan tarbiya konsepsiyalarini vertikal va gorizontal nuqtai nazaridan tahlil qilishni, xatolarni chetlab o'tib, tarix sinovidan o'tgan, insonparvarona mohiyatga ega bo'lgan tarbiyaviy konsepsiyalar yutuqlaridan, texnologiyasidan samarali foydalanishni taqozo qilmoqda. | 2 |
| 12. | Ilg'or xorijiy tajribalar asosida tarbiya jarayonini samaradorligini oshirish. | O'quv jarayonining samaradorligi. o'quv axborotlari mazmunining yeng maqbul tuzilmasi; boshqarish samaradorligi va bilish faoliyatini tashkil etish; axborotlarni o'zlashtirishda individual o'z-o'zini boshqarish imkoniyatlaridan foydalanish; hamkorlik pedagogikasiga bo'lgan shaxsiy yondashuv; | 2 |
| 13. | Oilada va maktabgacha ta'limda | Maktabgacha yoshdagi | 2 |



| | | | |
|---|---|---|---|
| | "tarbiya" metodlari | bolalarning tabiat bilan tanishtirish ish shakllari va o„ziga xosligi; - tabiat bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirish; - maktabgacha ta"lim muassasalarida tabiat bilan tanishtirish mashg„ulotlarini rejalashtirish va tashkil qilish; - maktabgacha yoshdagi bolalarni jonli va jonsiz tabiat bilan tanishtirish usullari; - maktabgacha yoshdagi bolalar bilan tabiat bilan tanishtirish mashg„ulotlarda ta"lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish; | |
| 14. | O'quvchilarda ijtimoiy kompetensyalarni shakllantirishda ta'lim texnologiyalardan foydalanish (1-4 sinf ) | O'quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish Interfaol yondashuv. O'qituvchilar dars jarayonini yaxshi tashkil etish uchun qulay muhit yaratadi. O'quvchilarning o'zaro fikr (axborot) almashishlariga imkon berish. | 2 |
| 15. | O'quvchilarda ijtimoiy kompetensyalarni shakllantirishda ta'lim texnologiyalardan foydalanish (5-9 sinf ) | Ta'lim oluvchilar keng miqyosdagi muammoli (ijodiy, axborot, kommunikatsiya va h.k.)masalalar. Mazkur metodning yuqori samara berishi uchun loyihani bajarishda o'quvchilarda motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi. O'quvchilarda quyidagi shaxsiy kompetensiyalarni shakllantirish. | 2 |
| 16. | O'quvchilarda ijtimoiy kompetensyalarni shakllantirishda ta'lim texnologiyalardan foydalanish (10-11 sinf ) | O'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim. O'quvchilar uzluksiz ravishda murakkablashib boradigan amaliy topshiriqni rejalash, konstruksiyalash va bajarish jarayonida bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'ladigan o'qitish tizimi | 2 |
| 17. | Ijtimoiy kompetensyalarni | O'quvchilarda ijtimoiy | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | shakllantirishda ta'lim texnologiyalardan foydalanish (professional va oliy ta'lim) | kompetensiyalarni shakllantirishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish Interfaol yondashuv. O'quvchilarning o'zaro fikr (axborot) almashishlari. Olgan axborotlari asosida bilimlarini bir-birlariga namoyish etish. | |
| 18. | O'zbekiston Yoshlar ittifoqining ta'lim muassasalari bilan olib boradigan ishlarining mazmuni | O'zbekiston yoshlar ittifoqining institutdagi boshlang'ich tashkiloti, jismonan sog'lom, ma'nan yetuk va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan yosh avlodni shakllantirish, yoshlarni tashqi tahdidlar va "ommaviy madaniyat"ning zararli ta'siridan muhofaza qilish, O'zbekiston yoshlarini birlashtiruvchi nodavlat notijorat tashkilot | 2 |
| 19. | O'zbekiston Yoshlar agentligi NNT ning ta'lim muassasalari bilan olib boradigan ishlarining mazmuni. | Yoshlar bilan bog'liq soha va yo'nalishlarda yagona davlat siyosati, yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash, "Yoshlar media xoldingi" aksiyadorlik jamiyati, yoshlar sohasidagi xalqaro reytinglar | 2 |
| 20. | Xalq ta'limi tizimida tarbiya jarayonini tashkil etishning o'ziga xosligi. | Umuminsoniy qadriyatlar, yuksak ma'naviyat, pedagogika va psixologiya, kadrlar tayyorlanadigan yangi ta'lim yo'nalishi, ijtimoiy yordamga muhtoj oilalar | 2 |
| 21. | Tarbiyachi, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi. | Xalq va jamiyat, metodist o'qituvchi, xalq maorifi a'lochisi, pedagogik qobiliyat tarkibi, pedagogik mahorat, nutq madaniyatiga e'tibor, kattalarga hurmat bilan qarash, tabiatga qiziqish, kuzatuvchanlik | 2 |
| 22. | Tarbiya jarayonida oila, mahalla hamda ta'lim muassalarining hamkorligini yo'lga qo'yish | Oila, mahalla, maktab hamkorligi Konsepsiyasi, Ta'lim to'g'risidagi Qonuni, muqaddas | 2 |



| | | | |
|---|---|---|---|
| | shakl va metodlari. | an'analarimizni anglash tuyg'ulari, el-yurtga sadoqat, yuksak odamiylik, ma'naviy – axloqiy negiz, milliy va umuman insoniy qadriyatlar | |
| 23. | Sharq allomalari tarbiya jarayonida qo'llagan texnologiyalari. | Sharq mutafakkirlarining ijodiy faoliyatidagi ta'lim-tarbiyaga oid yondashuvlar, g'oyalar, qarashlarni yosh avlodning ongiga singdirishda tarbiya usullari va vositalarini bilish, hayotda ulardan to'g'ri foydalanish pedagogik ta'lim jarayonida o'qituvchining pedagogik mahoratidagi muhim xususiyatlardan biri ekanligi ochib berilgan. | 2 |
| 24. | Jadidlarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi g'oyalarini amalga oshirish texnologiyalari | Jadidchilik g'oyalarini keng xalq ommasiga yetkazish niyatida yangi o'zbek adabiy tilini ishlab chiqish, matbuot hurligi uchun kurash, xalq ommasiga tushunarli adabiyot va teatrni yaratish. | 2 |
| 25. | Bola huquqlari to'g'risida konvensiya | Konvensiyaga ko'ra, bola o'zining kamol topishida o'zi faol ishtirok etish, o'z fikrini bayon qilish huquqiga ega, bu esa uning hayotiga oid masalalarni hal etishda hisobga olinishini ta'minlaydi. Konvensiya bolaning yashash va sog'lom rivojlanish huquqiga, farzandlikga olish bilan boglits huquqqa, noraso bolalar va qochoq bolalar, shuningdek huquqbuzarlik sodir etgan bolalarning huquqlariga oid qoidalarni o'z ichiga oladi, bolalarga g'amxo'rlik qilish va ularni himoya qilishda oila va otaonaning birinchi darajali roli, bolalarga yordam ko'rsatish borasidagi majburiyatini tan oladi. | 2 |
| | | Jami: | 50 s. |

### 3. Mustaqil ta'lim ishlari

"Mustaqil ta'lim va mustaqil mashg'ulotlar" qismida mustaqil ta'limning shakli va mazmuni, mustaqil ishga mo'ljallangan mavzular va topshiriqlar, mustaqil mashg'ulotlar jarayonida ta'lim oluvchilar tomonidan tayyorlanishi zarur bo'lganishlar referat, esse, mustaqil (ijodiy) ish, muammoli ma'ruza va boshqalar keltiriladi;

| № | Mustaqil ta'lim mavzu va topshiriqlari nomi | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlarhajmi |
|---|---|---|---|
| 1. | Bolaning o'z hulqi va faoliyatini ongli nazorat qilishini kuchaytirish va o'z-o'zini baholashga qo'ygan talablari. | O'quvchi o'zining (o'rtog'ining) bilimlarini baholashi uchun berilgan namuna etalon nisbatini (ulchashni) bilishi zarur. O'z harakati yoki ish natijalarini etalon bo'yicha taqqoslab, u o'z faoliyatini baholashga o'rganadi. O'qituvchi bahosidan so'ng o'zini-o'zi baholashga o'tish o'quvchini o'qitishning faol sebyekti qilishda juda muhimdir. O'qitishda o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri, bu o'quvchilar bilish faoliyatini boshqarish hisoblanadi. Undan kelib chiqib, u o'quv bilish faoliyatini rejalashtiradi, nazoratni boshqarish va baholashni amalga oshiradi. | 2 |
| 2. | O'z xalqining va boshqa xalqlarning an'analarini, qadriyatlarga qiziqishning namoyon bo'lishi. | Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda odatda suhbat, ma"ruza, trening, savol-javob, bahs va oshqa ko,,rinishlarda olib boriladi. Yoshlar ongi va qalbiga milliy qadriyatlarni singdirishning bu shakli samaradorligi tarbiyachining, murabbiyning, muallimning, ustozning bilimi, ehtiqodi, jamiyatimiz muammolari va uni bartaraf etish yo,,llarini aniq batafsil dalillar bilan ilmiy asosda tushuntirib bera olishiga bo'liq. | 2 |
| 3. | Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr oqibatlilik kabi fazilatlarini shakillantirish mazmuni | Vatanparvar — bu kishilarning ona yurtiga, o'z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan biri. Mafkuraviy immunitetni shakllantirish kishilar ongiga bir xil g'oyani zo'r berib tiqishtirish emas, balki odamlarda oq-qorani ajratish, zararli g'oyalarga qarshi hushyor va ogoh bo'lish xususiyatlarini tarbiyalash demakdir. | 4 |
| 4. | Masuliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsiyon fikirlash kabi fazilatlarni shakillantirish mazmuni. | Mustaqil fikrga ega, o'z millati va Vatani manfaatlari yo'lida fidoyilik ko'rsatishga qodir barkamol avlodni tarbiyalab, ularda milliy ongni shakllantirish, mustaqil barqaror taraqqiyot uchun xizmat qilishga yo'naltirish jarayonida milliylikka xos tolerantlik yo'nalishlarini kengaytirish bugungi kunning talabidir. | 4 |
| 5. | O'quvchilarda jismoniy va intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish va kreativ sifatlarini namoyon qilishning mazmuni. | Ta'lim oluvchilarda kreativlikni rivojlantirish ta'lim mazmunini o'zlashtirishda ta'lim oluvchilarning bilim saviyasi, o'zlashtirish darajasi, ta'lim manbai, didaktik vazifa- | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | lariga qarab, munosib ravishda o'qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi. | |
| 6. | Yoshlar ittifoqining faoliyati va ta'lim muasasalari bilan olib boradigan faoliyati. | Barkamol, mustaqil fikrlaydigan, o'zining hayotiy pozitsiyasi va qat'iy e'tiqodiga ega, jamiyat hayotida munosib o'rin egallash, mamlakatni isloh qilish, yangilash jarayonlarida hal qiluvchi kuch va tayanch bo'lishga qodir yoshlarni shakllantirish, ularning siyosiy madaniyati, huquqiy savodxonligi va huquqiy ongini yuksaltirish | 2 |
| 7. | UNICEF halqaro tashkiloti faoliyatida bolalarni himoya qilishning huquqiy asoslari bolalarning himoya qilish tashkiloti | UNICEF Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga amal qilib, uning qoidalari bolalarga nisbatan etika tamoyillari va xalqaro standartlarga muvofiq amalga oshirilishini ilgari suradi. | 4 |
| 8. | Tarbiya fanini o'qitishda tarbiya treninglari asosida faoliyatini tashkil etish. | Trenerlarni tayyorlash, uning maqsadi trenerlarning o'zlarini tahlil qilish, optimal dasturni tanlash, turli qisqa muddatli o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish va baholashga o'rgatishdir. Ko'pchilikdan farqli o'laroq, trenerlar mashg'ulotlari odatda ko'proq uslubiy qismga ega bo'lib, shuningdek, fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. | 2 |
| 9. | Oila mahalla hamda ta'lim muasasalariningta'lim-tarbiya jarayonida hamkorligi. | Ertangi kun kelajagi bo'lgan yoshlarning, bolalarning mustaqil va erkin shaxs sifatida shakllanishida oila , | 2 |



| | | | |
|---|---|---|---|
| | | mahalla va maktab hamkorligi, ta'lim-tarbiya jarayonini har tomonlama takomillashtirish juda katta ahamiyatga ega, o'zaro hamkorlikni yanada mustahkamlanishi samarali tashkil etilishi yoshlarni barkamol avlod sifatida kamol topishi uchun zamin bo'ladi. | |
| 10. | Bola huquqlari to'g'risida konvensiya | Konvensiyaga ko'ra, bola o'zining kamol topishida o'zi faol ishtirok etish, o'z fikrini bayon qilish huquqiga ega, bu esa uning hayotiga oid masalalarni hal etishda hisobga olinishini ta'minlaydi. Konvensiya bolaning yashash va sog'lom rivojlanish huquqiga, farzandlikga olish bilan boglits huquqqa, noraso bolalar va qochoq bolalar, shuningdek huquqbuzarlik sodir etgan bolalarning huquqlariga oid qoidalarni o'z ichiga oladi, bolalarga g'amxo'rlik qilish va ularni himoya qilishda oila va otaonaning birinchi darajali roli, bolalarga yordam ko'rsatish borasidagi majburiyatini tan oladi. | 2 |
| 11. | Tarbiya texnologiyasi – pedagogikaning asosiy texnologiyalaridan biri sifatida | Pedagogik texnologiya-tizimli,texnologik yondashuvlar asosida ta'lim shakllarini qulaylashtirish, natijasini kafolatlash va ob'ektiv baholash uchun inson salohiyati hamda texnik vositalarning o'zaro ta'sirini inobatga olib, ta'lim maqsadlarini oydinlashtirib, | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | o'qitish va bilim o'zlashtirish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar majmuidir. | |
| 12. | Tarbiya fanini o'qitishda milliy tarbiya an'analaridan foydalanishning o'rni | YOsh avlodni ma'naviy - ahloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy - tarixiy an'analariga, urf - odatlari hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etaladi"2 - deb alohida ta'kidlangan.Biz tomonimizdan asoslanayotgan, ishlab chiqilayotgan mazkur material oilada o'quvchi - yoshlarni milliy an'analar vositasida tarbiyalashning tarkibiy bir qismi ya'ni yo'nalishini tashkil qiladi. | 2 |
| 13. | Sharq allomalari tarbiya jarayonida qo'llagan texnologiyalari. | Sharq mutafakkirlarining ijodiy faoliyatidagi ta'lim-tarbiyaga oid yondashuvlar, g'oyalar, qarashlarni yosh avlodning ongiga singdirishda tarbiya usullari va vositalarini bilish, hayotda ulardan to'g'ri foydalanish pedagogik ta'lim jarayonida o'qituvchining pedagogik mahoratidagi muhim xususiyatlardan biri ekanligi ochib berilgan. | 2 |
| 14. | Jadidlarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi g'oyalarini amalga oshirish texnologiyalari | Jadidchilik g'oyalarini keng xalq ommasiga yetkazish niyatida yangi o'zbek adabiy tilini ishlab chiqish, matbuot hurligi uchun kurash, xalq ommasiga tushunarli adabiyot va teatrni yaratish. | 2 |
| 15. | Tarbiya metodlarining maqsadi, mazmuni va o'ziga | Tarbiya metodi (yunoncha «metodos» – yo'l) tarbiya | 4 |



| | | | |
|---|---|---|---|
| | xos xususiyatlari, ularni o'quvchilarning yosh, tarbiyalanganlik darajasiga bog'liqligi.. | maqsadiga erishishning yo'li. Maktab amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar – bu tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullaridir. | |
| 16. | Tarbiyada ibrat-namuna ko'rsatishning ta'limdagi o'rni. | Tarbiya deganda shakllanayotgan shaxsda shaxsiy, axloqiy sifatlarni shakllantirishni tushunamiz. Tarbiya, ta'lim berish bilan mustahkam aloqada bo'lgani holda o'ziga xos qonuniyatlarga ham egadir. Ta'lim – tarbiya yagona jarayondir. | 2 |
| 17. | Interfaol ta'limning asosiy tamoyil, shakl va omillari | interfaol ta'lim bir vaqtda bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi- o'quvchilarning muloqot olib borish bo'yicha ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi, o'quvchilar orasida emostional aloqalar o'rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o'z o'rtoqlarining fikrini tinglashga o'rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi. | 2 |
| 18. | Tarbiya fanini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlari. | Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi. | 4 |
| 19. | Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tarbiya | Boshlang"ich sinflarda tarbiya fanini o"qitishda | 4 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | jarayonini shakllantirishda tarbiya texnologiyalaridan foydalanish(1-4sinflar). | o"qituvchilarning darslarda pedagogik texnologiya, boshlang,,ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiy o,,yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o,,quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o,,rganganlarini hayot bilan bog,,lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradigan fikrlar tahlil qilinadi. | |
| 20. | O'rta va yuqori sinf o'quvchilarida tarbiya jarayonini shakllantirishda tarbiya texnologiyalaridan foydalanish (5-11sinflar). | O'quvchilarni har tomonlama, jismoniy, ruhiy, ma'naviy-axloqiy rivojlantirish orqali ijtimoiy hayotga moslashtirish va turli murakkab vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatish | 4 |
| 21. | Tarbiya texnologiyasi tushunchasi: tarbiya texnologiyasining ta'lim tizimidagi o'rni | Tarbiya texnologiyasi asosida tarbiyaviy jarayon yotadi. O'quvchilar faoliyatni tashkil etuvchilar bo'lib, ular tomonidan erishiladigan natijalarni rejalashtirish va unga erishish usullari, bu usullarni modellashtirish, ishlab chiqarilgan reja va modellarni ro'yobga chiqarish, bu rejalarni amalga oshiruvchi shaxsning faoliyati va axloqini boshqarish. | 2 |
| 22. | Tarbiya texnologiyalarining o'ziga xos xususiyatlari. Milliy tarbiya an'analari va texnologiyalari | Tarbiya texnologiyalaridan darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishi va uning mazmunini yarata olishi; ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish | 2 |



| | | | |
|---|---|---|---|
| | | va ulardan tarbiya jarayonida foydalanishi; o'z-o'zini takomillashtirish, rivojlantirish, nazorat qilish ko'nikmasiga ega bo'lishi; tarbiya jarayonida innovatsion tarbiya texnologiyalaridan samarali foydalana olish. | |
| 23. | *Tarbiya metodlari va vositalari. Tarbiya fanini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish* | Mavzu doirasida tarbiya fani dars jarayoni hamda mustaqil yondoshish asosida talabalarning mehnat tarbiyasini shakllantirishda innovasion ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanishning muhim jihatlari ochib beriladi. Didaktik vositalardan foydalanishda o'quvchilarning psixologik,yosh xususiyatlarini inobatga olish zarurligi misollar asosida isbotlanadi. | 4 |
| 24. | Tarbiya fanini o'qitish texnologiyalar samaradorligini oshirishda ilg'or xorijiy tajribalar. | Mavzu doirasida Yaponiya, Germaniya, Fransiya, AQSH kabi ilg'or xorijiy ta'lim tizimi tuzilmasi, tajribasi va zamonaviy ta'lim dasturlari qisqacha tahlil qilinib ta'lim tizimidagi yutuqlari, ta'lim standartlari monitoring qilinadi hamda ayni damdagi yurtimizda bu borada qilinayotgan ishlar tahlil qilinadi. | 4 |
| 25. | Tarbiya fanini o'qitishda "Oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi" Kontsepsiyasining o'rni | Yurt kelajagi bo'lgan yoshlarning, bolalarning mustaqil va erkin shaxs sifatida shakllanishida oila , mahalla va maktab hamkorligi, ta'lim-tarbiya jarayonini har tomonlama | 4 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | takomillashtirish juda katta ahamiyatga ega, o'zaro hamkorlikni yanada mustahkamlanishi samarali tashkil etilishi yoshlarni barkamol avlod sifatida kamol topishi uchun zamin bo'ladi. | |
| 26. | Ta'lim muassasidagi tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan tarbiyaviy. ishlarni tashkil etish texnologiyalari. | Mahalla faollari bilan hamkorlikda ushbu o'quvchilarning ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning bola tarbiyasidagi mas'uliyatini oshirishga qaratilgan hamkorlik ishlarini amalga oshirish | 4 |
| 27. | Globallashuv davri ma'naviy tarbiyasining o'ziga xosligi | Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida iktisodiy tafovutlarning kuchayishi, ayniqsa, zamonaviy telekommunikatsiya, komp'-yuter, internet vositalari orkali biron bir hududga xos milliy-ma'naviy qadriyatlarni o'zga xalqlarga singdirish va shu yo'l bilan jahonda nafaqat iktisodiy, balki milliy-ma'naviy hukmronlikni o'rnatishga urinish hollari ham kuzatilmoqda. Bu jarayon XXI asrga kelib XX asrdagiga Karaganda ham keng qamrov kasb etdi, ta'sir imkoniyatinm oshirdi, eng yomoni, ko'pgina rivojlangan mamlakatlar jahonda iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish, fan-texnika, texnologiya, ta'lim sohasida rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam | 4 |



| | | | |
|---|---|---|---|
| | | berish, demokratik qadriyatlarni keng yoyish bahonasida milliy-ma'naviy ta'sir o'tkazishga harakati kuratilgan. | |
| 28. | Sharq allomalari yaratgan tarbiya texnologiyalari. | Sharq mutafakkirlarining ijodiy faoliyatidagi ta'lim-tarbiyaga oid yondashuvlar, g'oyalar, qarashlarni yosh avlodning ongiga singdirishda tarbiya usullari va vositalarini bilish, hayotda ulardan to'g'ri foydalanish pedagogik ta'lim jarayonida o'qituvchining pedagogik mahoratidagi muhim xususiyatlardan biri ekanligi ochib berilgan. | 2 |
| 29. | Jadidlarning ta'lim-tarbiya texnologiyalari | Jadidchilik g'oyalarini keng xalq ommasiga yetkazish niyatida yangi o'zbek adabiy tilini ishlab chiqish, matbuot hurligi uchun kurash, xalq ommasiga tushunarli adabiyot va teatrni yaratish. | 4 |
| 30. | Tarbiya fanini o'qitish metodikasi fanining asosiy maqsad va vazifalari. Tarbiya fanini o'qitish metodikasining xususiyatlari va boshqa fanlar bilan bog'liqligi. | Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi. O'quvchi kattalarning tajribalarini sust holda emas, balki faol ravishda o'zlashtiradi, bu o'zlashtirishda uning ongli harakati, tirishqoqligi katta ahamiyatga ega bo'ladi. | 2 |
| 31. | Tarbiya jarayonida tizimlilik, uzluksizlik, uzviylik tamoyilining ustuvor jihatlari. Tarbiya fanining ilmiy tadqiqot metodlari | Tarbiya metodlari – pedagog-o'qituvchilarning o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish usullari, vositalari, tarbiyalanuvchilarga barkamol shaxs xislatlarini singdirish maqsadida tarbiya | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | jarayonini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tashkil etish yo'llaridir. | |
| 32. | Tarbiya konsepsiyalarining tarbiyaviy jarayondagi ahamiyati. Jahon tarbiyaviy konsepsiyalari | Tarbiya konsepsiyalari, qiyosiy tahlil, milliy tarbiya, milliy xususiyatlar, tarbiyasi nazariyasi, tarbiyaning izchilligi, pedagogik tajriba, mahorat. | 2 |
| 33. | Tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishda ilg'or xorijiy tajribalar. Tarbiya texnologiyalarining yosh doirasida hamda ta'limning turli bosqichlarida qo'llanishi | Ta'lim- tarbiya samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvning zaruriyati. O'qitish jarayonida innovatsion uslublarni ishlab chiqish va joriy etishning tashkiliy jihatlari. Innovatsion yondashuv asosida ta'lim-tarbiya jarayonida samaradorlikka erishish aspektlari. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta'lim-tarbiya. Ilg'or xorijiy ta'lim tizimlari | 2 |
| | | Jami: | 90 s. |

**6. FANNING KURS ISHI MAZMUNI**

o'quv rejaga ko'ra mazkur fan bo'yicha kurs ishi loyihalarini bajarish yuzasidan talabalarga topshiriq berish ko'zda tutilmaydi.

**7. O'QUV ADABIYOTLARIVA AXBOROT MANBALARI**

1.O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlari.
2.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Ta'lim" asarlari.
3. Р.Ишмухамедов., М.Юлдашев Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар. Т.: "Nihol"-2013., 279 б.
4.B.Xodjayev. Umumiy pedagogika. T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017.
5.M.Toxtaxodjaeva va boshqalar. Pedagogika. T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010
6.K. Hoshimov, S.Nishonova, M.Inomova, R.Hasanov. Pedagogika tarixi. T.: O'qituvchi, 1996.
7.K. Hashimov, S. Nishonova. Pedagogika tarixi. T.: A. Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy Kutubxonasi nashriyoti, 2005.
8.J. Hasanboyev va boshqalar.Pedagogika. T.: «Noshir» nashriyoti, 2011.



9.X. Ibragimov, Sh. Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi. T.: Fan va texnologiya, 2008.
10. O.Jabborova, Z.Umarova. Boshlang'ch ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi. T.: "Zebo Print", 2022.

**Qo'shimcha adabiyotlar**

1.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent.: "O'zbekiston", 2017. - 488 b.
2. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami, 2017 yil, 6-son,70-modda.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr "O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.
4. Кукушин В.С. Теория и методика воспитания.- Ростов-на-До ну.: Феникс, 2006.
5. "Pedagogika" fanidan ma'ruzalar matni.(tuzuvchi M.Inomova). T.: TDPI. 2010.

**Internet saytlari**

1. http://www.ziyonet.uz
2. http://www.thiman.com
4. http://www. genhis philol.ru.
5. http://en.wikipedia.org/wiki/Structuralism.
6. http://www.brocku.ca/english/courses/4F70/struct.html.

Ishchi o'quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023-yil "28" "08" "dagi "1" -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

**"Ijtimoiy –gumanitar fanlar kafedrasi" mudiri, p.f.n., dotsent**
I.Aslanov ________ (imzo)

**Tuzuvchi:**
A.Nasridinov ________ (imzo)
"Ijtimoiy –gumanitar fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

**Taqrizchilar:**
**TDPU Umumiy pedagogika kafedrasi mudiri p.f.d., professor** B.Xodjayev
________ (imzo)
**Jahon adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrasi mudiri f.f.d., professor** U.H.Jo'raqulov
________ (imzo)